

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA IJTIMOY TENGLIK VA ADOLATNI TA'MINLASH: HUQUQIY MEXANIZMLAR VA MUAMMOLAR

Bekmuxammadova O'g'iloy Ismoil qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

bekmuhammadiyevaogloy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis raqamlashtirishning jadal rivojlanishi sharoitida ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari hamda ularga bog'liq dolzarb muammolarni qamrab oladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquq normalaridan foydalanilgan holda raqamli muhitda kamsitishning shakllari, algoritmik qaror qabul qilishning huquqiy muammolari, ma'lumotlarga kirish tengligi va raqamli huquqlar tizimi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ijtimoiy tenglik, adolat, raqamli tengsizlik, elektron hukumat, shaxsiy ma'lumotlar, algoritmik qaror qabul qilish.

Аннотация. Данная статья охватывает правовые механизмы обеспечения социального равенства и справедливости в условиях стремительного развития цифровизации, а также актуальные проблемы, связанные с ними. В исследовании на основе норм законодательства Республики Узбекистан и международного права анализируются формы дискриминации в цифровой среде, правовые проблемы алгоритмического принятия решений, равенство доступа к данным и система цифровых прав.

Ключевые слова: цифровизация, социальное равенство, справедливость, цифровое неравенство, электронное правительство, персональные данные, алгоритмическое принятие решений

Abstract. This article covers the legal mechanisms for ensuring social equality and justice in the context of the rapid development of digitalization, as well as the relevant challenges associated with them. The study analyzes the forms of discrimination in the digital environment, the legal issues of algorithmic decision-making, equality of access to data, and the system of digital rights, drawing on the norms of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international law.

Keywords: digitalization, social equality, justice, digital inequality, e-government, personal data, algorithmic decision-making.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamlashtirish jarayoni barcha sohalarga - davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va ijtimoiy xizmatlar tizimiga jadal kirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'lini tutgan. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning 2020- yil 5- oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan

(15th international scientific and practical conference)

tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasi davlat va jamiyat hayotini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli vazifalarni belgilab berdi.¹

Raqamlashtirish - zamonaviy iqtisodiyotning asosiy omili bo‘lib, mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va global jarayonlarga qo‘shilishga yordam beradi. Keng islohotlar doirasida “smart-kontrakt”, “kiber jinoyat”, “kiber xavfsizlik”, “raqamli imzo” kabi tushunchalar huquqdagi raqamlashtirish tendensiyasining samarali amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Biroq, raqamlashtirish nafaqat imkoniyatlar, balki ijtimoiy tenglik va adolat nuqtai nazaridan bir qator jiddiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatining tengsizligi, algoritmik qarorlarning shaffof emasligi va shaxsiy ma‘lumotlarning yetarlicha himoya qilinmasligi huquqiy tartibga solishni talab etuvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuningdek, shahar va qishloqlar o‘rtasida raqamli tafovut saqlanib qolishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini cheklamoqda.

Ushbu tezisning maqsadi raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy tenglik va adolatni ta‘minlashning huquqiy mexanizmlarini tahlil etish, mavjud qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlash va tegishli takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 9 - dekabr 2015- yil O‘RQ-395 sonli “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi Qonunining 7-moddasida elektron davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat organlari, barcha ariza beruvchilarning elektron davlat xizmatlaridan teng ravishda foydalanishi uchun shart - sharoit yaratishi shart ekanligi belgilangan.² Ushbu normaga muvofiq barcha shaxslar teng ravishda elektron davlat xizmatlaridan foydalanishga egadirlar.

Sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar kredit berish, sug‘urta, ish joyi uchun tanlov va boshqa muhim qarorlarni qabul qilishda aholining ayrim guruhlarini asossiz kamsitishi mumkin. O‘zbekistonda hozirgi kunda bunday algoritmik qarorlarni mustaqil tekshirish va nazorat qilishning maxsus huquqiy mexanizmi mavjud emas, bu esa ijtimoiy adolat ta‘minlanishi nuqtai nazaridan muhim huquqiy bo‘shliq hisoblanadi.³

O‘zbekiston Respublikasining 2 - iyul 2019-yilgi O‘RQ-547 sonli “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida” gi Qonunining 27-moddasida shaxsga doir ma‘lumotlarni himoya qilish kafolatlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra davlat shaxsga doir ma‘lumotlarning himoya qilinishini kafolatlashi belgilangan. Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar texnologiyalarining davlat boshqaruviga kirib kelishi “algoritmik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020- yildagi “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni

² O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi 09.12.2015- yildagi O‘RQ -395- sonli Qonuni

³ Abdurasulov Olimjon Avalbayevich “Algoritmik boshqaruvning axloqiy oqibatlarini” 2026 –yil

<https://interspp.com/index.php/usp/article/view/3442/2475>

boshqaruv” hodisasini yuzaga keltirdi. Bunday tizimlar ijtimoiy nafaqalar berish, soliq tekshiruvlari, ta’lim imkoniyatlari va boshqa muhim sohalarda qarorlar qabul qilishda keng qo’llanilmoqda. Algoritmik boshqaruvning keng qo’llanilishi zamonaviy jamiyatga bir qator jiddiy axloqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari qarorlarining shaffoflik va tushunarilligi cheklanganligi sababli, diskriminatsiya va kamsitishning boshqa bir shakllari paydo bo’lmoqda.⁴ Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida algoritmik boshqaruvning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun qat’iy qonuniy ramka, mustaqil audit tizimlari va shaffof algoritmlarni joriy etish zarur. Texnologik taraqqiyot bilan inson huquqlari o’rtasida muvozanatni ta’minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish va huquqning o’zaro bog’liqligi davlat va jamiyatning ushbu masalalarga bo’lgan munosabati orqali namoyon bo’ladi.

Raqamli tengsizlik - bu jamiyat a’zolarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga kirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlaridagi farq. Misol uchun, nogironligi bo’lgan shaxslar uchun moslashtirilmagan tizimlar - ko’zi ojiz, quloq eshitmaydigan yoki harakatlanishda qiynaladigan fuqarolar uchun ko’pgina raqamli xizmatlar moslashtirilmagan. Bu ham raqamli tengsizlikning muhim bir ko’rinishidir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida har bir fuqaroning axborot olish huquqi, 19-moddasida esa tenglik tamoyili mustahkamlab qo’yilgan.⁵ Raqamli tengsizlik esa ushbu konstitutsiyaviy huquqlarning amalga oshirilishiga to’sqinlik qiladigan omil bo’lmoqda. Agar fuqaro o’z huquqlarini himoya qilmoqchi bo’lsa, biroq davlat xizmatlaridan foydalanishga zarur texnik yoki intellektual imkoniyati bo’lmasa, bu holat adolat tamoyiliga zid hisoblanadi. Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli huquqlar, internetdagi maxfiylik, anonimlik va so’z erkinligi kabi masalalar bilan shug’ullanish uchun 2002-yilda tashkil etilgan “Yevropa raqamli huquqlar” xalqaro jamoatchilik tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda.⁶

Estoniya tajribasi:

Estoniya aholining 99% elektron davlat xizmatlaridan foydalanadi. Bunga: texnologik infratuzilmaning rivojlanganligi;

- raqamli savodxonlikka berilgan e’tibor;
- maktabdan boshlab raqamli ta’lim dasturlari;

⁴ Abdurasulov Olimjon Avalbayevich “Algoritmik boshqaruvning axloqiy oqibatlari” 2026- yil <https://interspp.com/index.php/usp/article/view/3442/2475>

⁵ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023- yil

⁶ Azizjon Xo’janazarov “ Raqamli huquq: taraqqiyotning zamonaviy yo’nalishi” 07.11.2024 yil <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-huquq-taraqqiyotning-zamonaviy-yonalishi>

• fuqarolarga yordam beruvchi onlayn chatbotlar, soddalashtirilgan interfeyslar sabab bo‘lgan.⁷

Xulosa qilib aytganda, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologik rivojlanish bilan inson huquqlari kafolatlarini muvozanatda ushlab turish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi zarur. Raqamlashtirish adolatli va inklyuziv tarzda amalga oshirilgandagina ijtimoiy tenglikni ta‘minlash vositasiga aylanishi mumkin. Ushbu tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- **“Sun‘iy intellekt va algoritmik boshqaruv to‘g‘risida” gi maxsus qonun qabul qilish.** Mazkur qonun quyidagi asosiy normalarni o‘z ichiga olishi lozim: algoritmik qaror qabul qilishda shaffoflik prinsipi; fuqarolarning avtomatlashtirilgan qarorga nisbatan e‘tiroz bildirishi va insoniy ko‘rib chiqishni talab qilish huquqi; davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan algoritmlar uchun majburiy huquqiy ta‘sir, baholash tartibi.
- **Raqamli savodxonlik dasturlarini qonuniy majburiyat sifatida belgilash.** Maktab o‘quv dasturiga raqamli ta‘lim majburiy kiritilishi, katta yoshli aholi uchun bepul raqamli savodxonlik kurslari davlat tomonidan moliyalashtirilishi, nogironligi bo‘lgan fuqarolar uchun maxsus moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023- yil
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi 09.12.2015-yildagi O‘RQ -395- sonli Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni
4. Abdurasulov Olimjon Avalbayevich “Algoritmik boshqaruvning axloqiy oqibatlari” 2026-yil <https://interspp.com/index.php/usp/article/view/3442/2475>
5. Azizjon Xo‘janazarov ” Raqamli huquq: taraqqiyotning zamonaviy yo‘nalishi” 07.11.2024-yil <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-huquq-taraqqiyotning-zamonaviy-yonalishi>
6. Estoniya e-Government Foundation hisobotlari

⁷ Estoniya e-Government Foundation hisobotlari